

TA'LIMIY DIKTANTLARNI BAHOLASH MEZONLARI VA UNDAGI XATOLAR  
USTIDA ISHLASH METODIKASI.

Jumaniyozova Muhabbat Xo'sinova

UrDU "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Yaqubova Nodira Ruslanovna

UrDU Ta'lim va tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 2-kurs magistri, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchi-stajyori.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda ta'limiy diktantlarni o'tkazish metodikasi, baholash mezonlari va undagi xatolar ustida ishlash haqida fikr yuritiladi. Unda ta'limiy diktantning boshlang'ich sinf o'quvchilarida imloviy savodxonlikni shakllantirishdagi o'rni aks ettiriladi. Ta'limiy diktantning ko'rish diktanti turi va uni tashkil qilishning metodik jihatlari ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, ona tili va o'qish savodxonligi, imlo, imloviy savodxonlik, diktant, ta'limiy diktant, ko'rish diktanti, eshitish diktanti, imlo qoidasi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается методика проведения учебных диктантов в начальных классах, критерии оценивания, работа над ошибками в нем. Отражена роль учебного диктанта в формировании орфографической грамотности у учащихся начальной школы. Показаны вид наглядного диктанта учебного диктанта и методические аспекты его организации.

**Ключевые слова:** начальное образование, родной язык и грамотность чтения, правописание, орфографическая грамотность, диктант, учебный диктант, визуальный диктант, слуховой диктант, орфографическое правило.

**Annotation.** This article discusses the methodology of conducting educational dictations in primary education, evaluation criteria, and working on errors in it. It reflects the role of educational dictation in the formation of spelling literacy in elementary school students. The type of visual dictation of educational dictation and methodological aspects of its organization are shown.

**Key words:** elementary education, mother tongue and reading literacy, spelling, spelling literacy, dictation, educational dictation, visual dictation, auditory dictation, spelling rule.

Baholash ta'lim jarayoning ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil etishdan iborat jarayondir. Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birini qiyin, qaysi birini esa oson o'zlashtirilishi aniq ravshan bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rish va o'quv mashg'ulotini o'tkazishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta'lim oluvchiga ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv



materialini yaxshi, qaysi qo'niqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta'lim oluvchi o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas. Ba'zan unga go'yo o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog'ida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'lib qoladi. Baholash natijasida, ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatni hosil qiladi. Ta'lim oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishiga va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularini, uning xarakteridagi irodalilik, hamkorlik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi. Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham erishadi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib yetadi. Shu bois baholashni ta'lim olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin. Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta'lim muassasasi jamoasining ta'lim- tarbiya sohasidagi faoliyatiga, o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta'lim standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar nechog'lik bajarilayotgani aniqlanadi. Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshirib ko'rilishi kerak. Bu bilan talim tizimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o'lchanadi. Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki ta'lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

- o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o'tishdan oldin avval o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash lozim;
- natijaga erishilganligini tasdiqlash uchun;
- ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- ta'lim beruvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- ta'lim oluvchilarni yutuqlarga qiziqtirish uchun;
- tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota – onalarga ma'lumot berish uchun.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga diktantni yozdirgandan so'ng uni tekshirish, baholash va navbatdagi yozuv darsida uni tahlil qilish muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga



ega. Chunki o'quvchilar diktantni yozganlaridan keyin yo'l qo'ygan kamchiliklari va olgan baholarini bilishga qiziqadilar. Tekshirilgan diktantni belgilangan vaqtda tahlil qilish bilan o'quvchilarning ana shu istaklari qondiriladi. Bundan tashqari diktantda yo'l qo'ygan xatolarini takrorlashning oldini oladi.

O'quvchilarning barcha turdagi yozma ishlarini tekshirishda imlo va tinish belgilaridagi xatolar bilan bir qatorda husnixatiga ham e'tibor beriladi.

Diktantlarni o'tkazishda o'quvchilarning savodxonlik darajasini o'rganish, ularning orfografik va punktuatsion xatolarini tuzatish, ularni hisobga olish va baholash, xatolarni tugatish usullari alohida o'rin tutadi. Maktabda o'tkaziladigan barcha turdagi yozma ishlar o'quvchilarning savodxonligini aniqlash vositasi hamdir. Binobarin o'quvchilarning savodxonligini aniqlashda yozma ishlarning hamma turlaridan foydalanish mumkin. O'quvchilarning orfografik malakasi haqida tasavvur qilish uchun ko'proq nazorat diktantdan foydalanish tavsiya etiladi. O'qituvchi o'quvchilarning yozgan ishini tekshirib, xatolarini tuzatib bormasa, o'quvchi keyingi mashqlarni bajarishga qiziqmaydi, bajarsa ham, xatolarga beparvo qaraydi. O'quvchi o'zining har qanday yozma ishi o'qituvchining e'tiborida bo'lishini sezib turishi kerak. Bu o'quvchiga ruhiy oziq beradi.

Xato tuzatish ham ijobiy xarakterdagi ishlar jumlasiga kiradi. Maktabda xatolarni tuzatishning xato yozilgan harflar ustidan qizil siyoh bilan chizib, tepasiga to'g'risini yozib qo'yish usuli keng tarqalgan. Lekin bu usulni hamma vaqt ham samarador deb bo'lmaydi. Agar o'quvchi o'zbekcha so'zlarda (tala-dala) yoki faol lug'atda o'tib ketgan ruscha, forscha va arabcha so'zlarda (maktab-maktap), (g'isht-g'ish), (ruchka-ro'chka), (stol-istol) xato qilsa va bu xatolarni tez payqab olish uquviga ega bo'lsa, harfni o'chirib, to'g'risini ustiga yozib qo'yish usulidan foydalanish mumkin. Imlosi qiyin so'zlarda (vzvod-vzvot; muzaffar-muzafar kabi) xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa va psixologik tomondan ana shu so'zlarning fotokopiyasini o'quvchi o'z ongida aks ettirish kerakligi e'tiborga olinsa, xato yozilgan so'zni qizil rang bilan o'chirib, ustiga to'g'ri shakli yoziladi. Xato grammatik shaklda bo'lsa, harf emas, shakl o'chiriladi yoki uning ostiga chiziladi: qurildi-quruldi, kulib-kulub kabi.

Diktantda quyidagi xatolar hisobga olinmaydi:

- a) o'quvchilarga o'rgatilmagan qoidalar yuzasidan qilingan xatolar;
- b) gap oxirida nuqta qo'yilmagan bo'lsa-yu, keyingi gapni bosh harf bilan yozsa;
- d) gap ma'nosini buzmaganda biror so'zni boshqa so'z bilan almashlab yozsa;
- e) qo'pol hisoblanmagan quyidagi xatolar:

-biror harfni takror yozsa (masalan, "yozuv taxtasi" kabi )

-bo'g'in ko'chirishda: so'zning bir qismini birinchi qatorda yozsa-yu, ikkinchi qismini unutilgan bo'lsa;

- gapdagi so'zlardan biri takror yozilgan bo'lsa.

Diktantda yo'l qoyilgan xatolar ustida ishlashda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

**Grafik xatolarni tuzatish mashqlari;**

**Orfografik xatolarni tuzatish mashqlari;**

**So'z va bosh harflarni tuzatish mashqi;**

**Shevaga oid so'zlarni tuzatish mashqi;**

Tajriba sinov davridagi pedagogik kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, diktantni vaqtida o'tkazib, holalarda ko'nikma hosil qilingan sinflarda savodxonlik ancha yaxshi. Diktant yozdirishga uncha ahamiyat qilmagan sinf o'quvchilarining bilim malakalari, xusnixati, yozish uquvlari ancha sayoz. Xulosa shuki, diktant yozish o'quvchilar nutqi, eshitish va eslab qolishlik zarur malakalarni to'liq paydo qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev A. Diktant metodikasi.- Toshkent, "O'qituvchi", 1979.
2. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S., Bekmurodova G., G'ozixo'jayeva G. Diktantlar to'plami. (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun). - Toshkent: "Niso Poligraf", 2017.
3. Jumayeva S. O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishning ayrim yo'llari// "Ona tili ta'limidagi islohotlar: vazifalar, yechimlar va muammolar" Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.- Qarshi, 2015, 70-73-betlar.
4. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'limning 1-sinfi uchun darslik. 1-2-qism. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.
5. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'limning 2-sinfi uchun darslik. 1-2-qism. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.